

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

TILIMIZ

Shoxista Annaqulova

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti
otabeksemicon@gmail.com

Annatatsiya. Maqolada Abdurauf Fitratning shu nomli maqolasi asosida tilimizning bugungi holati haqida ayrim mulohazalar bayon qilingan. Ba’zi taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: til va imlo savodxonligi, globallashuv, yangi so‘zlar, xalqaro so‘zlar.

Bugun mamlakatimiz ayni yuksalish yo‘lida. Mamlakatdagi har qanday yuksalishga qo‘yilgan qadam tili bilan aloqada, bir butun bo‘lmas ekan yuksala olmaydi. Yuksalganda ham uzoqqa bormaydi, ko‘zga ko‘rinmaydi. Zero, har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadigan hayot oynasi tili va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmoq millatning ruhini yo‘qotmoqdir (Abdulla Avloniy). Shu sababdan ham mustaqiligimizga dastlabki qadam ham o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi bilan boshlangandi. Muhtaram prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan BMT Bosh assambleyasining 75-sessiyasida tariximizda birinchi marta o‘zbek tilida nutq so‘zlagani esa yurtimizning yuksala olishga qudrati va imkoniyati yetishini ko‘rsata olgan dadil qadamlardan bo‘ldi.

Tilni asrash, yuksaltirish, tanitish bir kishining, o‘n, yuz kishining yoki tilshunoslarning emas shu millat vakiliman, shu yurt farzandiman degan har bir insonning oldidagi vazifasi, farzi va qarzidir. Tayyoriga ayyorlikni to‘xtataylik. “Bu imkonsiz” yoki “o‘zbekchasi yo‘q, ma‘nosi g‘aliz” kabi ishonchsiz fikrlardan voz kechaylik. Yuksalish yo‘liga kirgan qaysi bir el shunday ishonchsizlik bilan ishga kirishadi?! Shunday ishonchsizlik bilan ishga kirishgan bir el yuksaladimi? To‘g‘ri, shoshma shosharlik bilan qilinadigan ish emas bu. Ammo ko‘p ham o‘ylab yura olmaymiz. Yoshlikdan bolalarga ota-onaga, vatanga muhabbat hissini singdiramiz. Shu qatorga tilga hurmat tuyg‘usini ham qo‘shaylik. Zamonaviylikni milliylikdan boshlaylik. Uchinchi renassansda dunyoga o‘z tilimiz – o‘zbek tilimiz bilan chiqaylik.

Tilimiz boy. O‘zbekchasi yo‘q deya, osongina yot so‘zni olavermasdan tirishaylik, izlanaylik, harakat qilaylik. O‘zimizga ishonaylik. Ingliz, fransuz, qardosh turk tili o‘z so‘zlari bilan ot bera olayapti-ku. Chunki vatanini, xalqini, o‘zini yaxshi ko‘radi, hurmat qiladi. Buni amalda, avvalo, tili misolida ko‘rsata olayapti. Birgina qardosh turklarning madaniyatiga, tarixiga, adabiyotiga qiziquvchilar soni yurtimizda ham keskin oshdi. O‘zbek tili sertifikatini uchun emas balki turk tili sertifikatini uchun imtihon topshirganlar soni ham ko‘paydi. Bu tilni sevimli mashg‘ulot sifatida

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

o‘rganayotganlar ham anchagina. Demakki, bu turklar dunyoga tili bilan chiqayotgani ko‘rsatyapti.

Bundan yuz yildan oshiqroq vaqt oldin Abdurauf Fitrat tomonidan tilimiz haqida yonib, qayg‘urib aytganlari bugun ham dolzarbligini zarracha yo‘qotgan emas. Turk tili baxtsiz deydi olim. Sababini quyidagicha izohlaydi: “Turk o‘g‘li turk bo‘lg‘an Mahmud G‘aznaviy Firdavsiyni chaqirib, turk ezilishini ko‘rsatgan «Shohnoma»ni yozdirdi-sun-da, har yo‘liga bir oltun bersun. Shul baxtsizliqdirkim, turk o‘g‘li bo‘lg‘an usmonli xoqonlari o‘z tuyg‘ularini forsi(y)cha she‘r bilan so‘ylatmishdir [1,127]”. To‘g‘ri bugun tilimiz baxtsiz demasmiz lekin baralla, g‘urur bilan baxtli ham deya olmaymiz. Sabablar bisyor. O‘zbek farzandlarining tili ruschada, inglizchada chiqayapti, rus, ingliz bog‘cha, maktablariga borayapti, o‘zbek tilini bilmagani uchun emas chet tillarini yaxshi bilmagani uchun yaxshi ishlarga joylasha olmayapti. Biz bu yerda chet tilini o‘rganmaslik kerak demoqchi emasmiz. Xorijiy tillarni o‘rganish bugungi global davrda ziyoliman, ilg‘orman, ilmim bilan dunyoga chiqaman, yurtim bayrog‘ini baland ko‘taraman degan har kishiga zarur, albatta. Biz faqat tilimiz chetga surilib qolishidan xavotirdamiz. Bizga “mustaqil til va shu tilda yaratilgan ilm”lar kerak. O‘zbek tili boy til. Har qanday ilmni kashf qilishga, yoritishga, dunyoga tanitishga qurbi yetadi.

Ma‘lumki, so‘nggi yillarda barcha tillarda bo‘lgani kabi bizning leksik qatlamimizda ham neologizmlar safi kengayib bormoqda. Birining ma‘nosi-yu, vazifasi nima ekanligini anglab ulgurmasdan ikkinchisi namoyon bo‘lmoqda. Natijada, yangi so‘zlarni tilimiz qonun-qoidalariga bo‘ysindirish ham muammoli holatga aylandi. To‘g‘ri, chet tillardan kirib kelayotgan neologizmlarni o‘zbekchalashtirish biroz vaqt talab qiladi. Ayniqsa, imlo masalasiga e‘tibor qaratmasak bir qator savodsizliklarga olib kelishi mumkin. Xalq bu so‘zlarni qabul qilishda va qo‘llashda, avvalo, kundalik hayotining ajralmas qismi OAV, televideniya va ijtimoiy tarmoqlardan o‘rnak oladi. Tilshunoslar til qonun qoidalarini yaratadi, tartibga soladi. Shu qoidalarga so‘zlarni bo‘ysindirib, ommaga yetkazish avvalo jurnalist va bloggerlarning zimmasida. Shu sababdan ulardan katta til va imlo ilmi, savodxonligi, madaniyati talab qilinadi. Aks holda ularni hech qanday sabab bilan oqlab bo‘lmaydi. Chunki tilimizda bugungi kunda Hoji Muin bir vaqtlar ko‘nglida og‘riq bilan aytgan holat yo‘q. Ma‘rifatparvar olim “Til masalasi” nomli maqolasida XX asr birinchi chorak davri til holati haqida quyidagilarni bayon qiladi: “Biz turkcha qoidalarni bilmaganlari uchun hozirgi mirzo va tarjimon birodarlarimizni ayblay olmaymiz, alar bu to‘g‘rida ma‘zurdir. Chunki alar va bizlarning hech qaysimiz muntazam maktablarda o‘qub chiqmag‘on. Til qoidalarining ta‘limi

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

muntazam maktablarda bo‘ladir-ki, munday maktablar hanuz Turkistonimizda ochilg‘on emas. Hozirgacha davom etib kelgan yangi maktablarimizda bo‘lsa turkiy tilimizning sarf va nahvi o‘qutila boshlag‘oni yo‘q. Bizning turkiy tilimiz ishlanmag‘on bir til bo‘lib, muning sarf va nahvig‘a oid hanuz biror turli risola bosilib chiqq‘on emas. Bizning muallim afandilarimiz til qoidalarini yaxshi bilmaydirlarki, ushbu kungacha ba'zilari tarafidan yozilg‘on maktab kitoblaridan ma'lumdir [2,88]”. Bugun esa bunday kamchiliklar deyarli uchramasa-da, ba’zi bir holatlar alam qiladi, ingliz tilida yozar ekanmiz “winter”ni “vinter”, “word”ni “vord”, “verb”ni “werb”, “city”ni “sity”, “call”ni “kall”, “site”ni “cite”, “what”ni “vat” yoki “wat” deb yozmaymiz, nazarimizda, katta xato bu. Chunki shunday yozsangiz IELTS imtihonida yuqori ball ololmaysiz. Ammo “havas”ni “xavas”, “xush”ni “hush”, “hodisa”ni “xodisa”, “o‘rdak”ni “urdak”, “o‘rin”ni “urin” deb yozish tabiiy xol, shu tilda savodi chiqqan, shu imlodada kamida o‘n bir yil ta’lim olgan kishi uchun arziyasiz xato. To‘g‘ri yozishni xohlaganlar esa “handalakdagi yoki xo‘rozdagi” ekanligini so‘rab olishadi. Yana yetmaganidek imlomizga yot “w”, “c”larni qo‘llashimiz-u, “x”ni “e(i)ks” tarzida ifodalayotganimiz ortiqcha.

“Tilimizdag‘i so‘z boylig‘i, ishtiyoq kengligi, qoida tugallig‘i, sarf-nahv ingichlari boshqa sharq tillaridan qolishmas, bu to‘g‘rularida[1,127]” bir qator tillarni ortda qoldirishi aniq. Buni his qilmoq uchun esa xalqini, tilini sevmok kerak.

To‘g‘ri hamma so‘zni ham o‘zbekchalashtirishning imkoni yo‘q. Faqat tilimiz buyrug‘i ostida bo‘lsin; “boshqacha turli aytqanda, Fransada yashag‘an bir turk kabi bo‘lundig‘i turkchanning qonunlarig‘a bo‘yunsunib yashasun; turkchada turg‘an bir fransuzdek «kapitulasion» asrori ostida turmasun [1,128]”. Qabul qilsak ham *online*, *wi-fi*, *podcast* deb emas, *onlayn*, *vay-fay*, *podkast* deb qabul qilamiz. Ammo donatning o‘zbekchasi bor – bu xayriyadir. Barbershop – sartaroshxona, spa-salon – massajxona, shopping – xariddir. Bir qator so‘zlarni: baynalmilal, “ilmiy istilohlami turklashdirmak uchun tirishmak vaqtimizni bo‘shg‘a o‘tkargan bo‘larmiz”. Masalan, blogning, messenjerning, internetning o‘zbekchasi yo‘qdir. Bu so‘zlarni butun dunyo tillari qabul qildi.

Xulosa shuki, yangilanish har qanday narsaning, hodisaning yashayotgani va rivojlanishda, dinamikada ekanligining asosiy belgisidir. Har bir xalq tilida yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi ham o‘sha tilning hayotligining bosh dalilidir. Til esa, tilshunos olim, professor N.Mahmudov yozganlaridek: “...millat borligi va birligining boqiyiligini ta’min etadigan, xalq tafakkur tarzining tamalida turadigan, qavmning qalbi qa’ridagi qiyossiz qudratni sog‘lom saqlaydigan, milliy ma’naviyat, milliy o‘zlik degan teran tushunchalarning tirikligiga tirkak tutadigan benazir bir

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

vositadir [3,5]”. Ko‘rinib turganidek, neologizatsiya jarayoni til uchun ijobiy hodisa, faqatgina, prezidentimiz ta’kidlaganlariday, “globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofliğini saqlash, uning lug‘at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o‘zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo‘llanishini ta’minlash dolzarb vazifa bo‘lib turibdi [4]”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 4 jild. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2006.
2. Muin H. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2005.
3. Mahmudov N. Suyuk tilimizning buyuk rutbasiga mas’ullik\ “O‘zbek tili va adabiyoti”, 2023-yil, 5-son.
4. www.prezident.uz Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2019-yil 20-oktabr.